

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

SEMANTIC ANALYSIS OF SOME PHRASEOLOGICAL UNITS IN “KUTADGU BILIG” BY YUSUF KHAASS HAJIB

Kosimjon Abilovich Sidikov

Candidate of Philological Sciences, Professor

Namangan State University

E-mail: qosimjon1977@mail.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Kutadgu Bilig, Yusuf Khass Hajib, phraseological unit, semantic analysis, semantic field, conceptual metaphor, context, Turkic literature.

Received: 01.02.26

Accepted: 02.02.26

Published: 03.02.26

Abstract: This article presents a semantic analysis of some phraseological units found in Yusuf Khass Hajib's Kutadgu Bilig. The study aims to identify the meaning layers, sources of imagery, and contextual functions of these fixed expressions within the didactic-poetic fabric of the text. The methodology combines semantic-field grouping, contextual interpretation, and conceptual metaphor analysis. The results indicate that phraseological units serve as key mechanisms of semantic compression: they transform ethical and religious ideas into memorable formulas, intensify rhetorical impact, and contribute to the legitimization of social and political norms. The findings also show that recurrent expressions systematically model core concepts such as “speech and restraint,” “knowledge and intellect,” and “time and transience,” thereby linking individual episodes to the broader worldview encoded in the work.

YUSUF HOS XOJIB “QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI AYRIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMNTIK TAHLILI

Qosim Abilovich Sidiqov

Filologiya fanlari nomzodi, professor

Namangan Davlat Universiteti

E-mail: qosimjon1977@mail.ru

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Qutadgʻu bilig, Yusuf Xos Xojib, frazeologik birlik, semantik tahlil, semantik maydon, konseptual metafora, kontekst, turkiy adabiyot.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf Xos Xojibning “Qutadgʻu bilig” asarida uchraydigan ayrim frazeologik birliklar semantik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – frazeologizmlarning maʼno qatlamlari, obrazlilik manbalari va matn ichidagi funksional yukini aniqlashdir. Tahlilda semantik maydon (mavzuviy guruhlanish), kontekstual talqin hamda konseptual metafora yondashuvlaridan foydalanildi. Natijalar frazeologik birliklar asarda diniy-axloqiy gʻoyalarni ixcham formulalar orqali ifodalash, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni legitimlashtirish va ruhiy holatlarni badiiylashtirishda muhim vosita ekanini koʻrsatadi. Shuningdek, ayrim birliklar turkiy tafakkurda “til–soʻz”, “aqil–ilm”, “vaqt–foniylilik” kabi konseptlarni tizimli ravishda modellashtirishi qayd etiladi.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «КУТАДГУ БИЛИГ» ЮСУФА ХАС ХАДЖИБА

Қосим Абилович Сидиқов

Кандидат филологических наук, профессор

Наманганский Государственный Университет

E-mail: qosimjon1977@mail.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Кутадгу билиг», Юсуф Хас Хаджиб, фразеологическая единица, семантический анализ, семантическое поле, концептуальная метафора, контекст, тюркская литература.

Аннотация: Статья проводится семантический анализ некоторых фразеологических единиц, функционирующих в произведении Юсуфа Хас Хаджиба «Кутадгу билиг». Цель исследования – выявить смысловые слои, источники образности и контекстуальные функции устойчивых выражений в дидактико-поэтической структуре текста. Методологическая база включает анализ семантических полей (тематическое группирование), контекстуальную интерпретацию и элементы теории концептуальной метафоры. Результаты показывают, что фразеологизмы выступают механизмом смысловой компрессии: оформляют религиозно-нравственные идеи в виде запоминающихся формул, усиливают риторическое воздействие и участвуют в легитимации социальных и политических норм. Отмечается также, что

повторяющиеся выражения системно моделируют ключевые концепты «язык-речь», «знание-разум», «время-бренность», связывая частные смыслы с целостной картиной мира произведения.

Kirish. Jahon turkiyshunosligining yirik asari “Qutadg‘u bilig” hozirga qadar dunyo olimlari va tadqiqotchilari e’tibori markazida ekani, shubhasiz. So‘nggi yillarda bu tadqiqotlarning jadallashganini ta’kidlash mumkin. “Qutadg‘u bilig” bo‘yicha dastlabki ilmiy izlanishlarning G‘arbiy Yevropada XIX asr boshlarida boshlanganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Qadimiy yozma yodgorliklar nafaqat muayyan davr tilining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini aks ettiradi, balki turli til jamoalarining ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim manba sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, mazkur yodgorliklar xalqlar o‘rtasidagi madaniy va intellektual aloqalarni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

XI asr turkiy adabiyoti va madaniyati taraqqiyotida alohida o‘rin tutuvchi buyuk mutafakkir va davlat arbobi Yusuf Xos Hojib tomonidan yaratilgan “Qutadg‘u bilig” asari turkiy yozma adabiyotning yuksak namunalaridan biri sanaladi. Ushbu asar o‘z mazmun-mohiyati, g‘oyaviy yo‘nalishi hamda badiiy-estetik qiymati bilan didaktik adabiyotning mukammal namunasi sifatida baholanadi. Asarda inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlar, adolat, axloqiy komillik, ilm va hikmat masalalari chuqur falsafiy mushohada asosida yoritilgan.

“Qutadg‘u bilig”ning ahamiyati shundaki, u o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini til vositalari orqali badiiy ifodalabgina qolmay, balki keyingi davr turkiy adabiyoti va til taraqqiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Asarda qo‘llangan frazeologik birliklar, ramziy obrazlar va poetik ifodalar turkiy tilning boy semantik imkoniyatlarini namoyon etib, uni lingvopoetik va lingvomadaniy tadqiqotlar uchun muhim manbaga aylantiradi. Shu bois, “Qutadg‘u bilig”ni zamonaviy lingvistik va tarjimashunoslik yondashuvlari asosida o‘rganish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Yusuf Xos Hojib yaratgan ilk turkiy yozma obida namunasi “Qutadg‘u bilig” o‘zining teran mazmuni, go‘zal badiiyati va nafis poetikasi bilan bir necha asrlardan beri jahon ilm ahli, shu jumladan, adabiyotsevarlarning diqqat markazida turibdi. Asarning dunyo olimlari tomonidan keng o‘rganilayotgani va jahonning turli tillariga qayta-qayta tarjima etilgani bugungi kun tadqiqotchilari oldiga uni mukammal tadqiq etish bo‘yicha yanada ko‘proq vazifalarni qo‘yadi.

“Qutadg‘u bilig” Qoraxoniylar davrida shakllangan siyosiy-axloqiy didaktika namunasidir. Ensiklopedik manbalarda asarning janr jihatidan “zerkalo dlya praviteley” (mirror for princes) an’anasiga yaqinligi va 1069-1070 yillarda Koshg‘ar shahrida yakunlangani ta’kidlanadi.

R. Denkoff turkiy adabiyotda ikkinchi “Shohnoma” – “Shohnomai turkiy” yaratilganini iftixor bilan ta’kidlaydi. Tarjimon “Qutadg‘u bilig”ni “Qobusnoma” va “Siyosatnoma” kabi “Shohlar oynasi” janrida yozilgan asarlar sirasiga kiritadi .

V.Radlov “Qutadg‘u bilig”ni turkiy yozma adabiyot tarixidagi eng qadimgi va mukammal didaktik asarlardan biri sifatida baholab, unda davlat boshqaruvi, axloq va ijtimoiy munosabatlar masalalari tizimli tarzda yoritilganini ta’kidlaydi.

Malayziyaning Sains universiteti professori doktor Jelani Xarun o‘zining “Shohlar oynasi” janri ustida olib borgan tadqiqotida Ibn Qutaybaning “Kitob al-Sulton”, Ibni Tayfurning “Kitab al-Bog‘dod”, Nizomulmulukning “Siyar al-Muluk”, Imom al-G‘azzoliyning “Nasihah al-Muluk”, Muhammad Baqir Najmi Soniyning “Mauzahi Jahongir” va Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari “Shohlar oynasi” janrida yozilganligini ta’kidlaydi .

R. Aratning fikricha, “Qutadg‘u bilig” nafaqat adabiy yodgorlik, balki turkiy xalqlarning siyosiy-falsafiy tafakkurini aks ettiruvchi ensiklopedik asar bo‘lib, unda til va mazmun o‘zaro uyg‘unlashgan .

B.O‘rinboyevning ta’kidlashicha, “Qutadg‘u bilig”dagi frazeologik birliklar va poetik obrazlar turkiy tilning lingvopoetik imkoniyatlarini yaqqol namoyon etib, asarni lingvomadaniy tadqiqotlar uchun noyob manbaga aylantiradi .

“Qutadg‘u bilig”ning umumturkiy yozma yodgorlik sifatidagi yuksak maqomi uning jahon turkiyshunosligi doirasida doimiy va chuqur ilmiy e’tibor markazida bo‘lib kelishiga asos bo‘lmoqda. Asarning til, uslub, g‘oya va badiiy tafakkur jihatidan turkiy xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan qadriyatlarni mujassam etgani uni nafaqat muayyan tarixiy davr mahsuli, balki umumturkiy madaniy merosning muhim manbasi sifatida baholash imkonini beradi. Shu bois “Qutadg‘u bilig” turli mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan turkiyshunos olimlar tomonidan tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan izchil o‘rganilib kelinmoqda.

“Dunyodagi ilmiy tadqiqot markazlarida tarixchi va adabiyotshunoslar tomonidan “Qutadg‘u bilig” asari turli aspektlarda o‘rganilmoqda. Uni adabiyotshunoslar betakror adabiy-badiiy san’ati, aksiologlar yuksak qadriyatlar tizimi, psixologlar inson ruhiyati, siyosatshunoslar boshqaruv nazariyasi, kratologlar hokimiyatshunoslik, pedagoglar tarbiya asoslari, tarixchilar ulkan meros, tilshunoslar til boyligi, madaniyatshunoslar davr va millat, davlat va jamiyat madaniyati, dinshunoslar esa insonning diniy va dunyoviy munosabatlari bilan bog‘liq ko‘plab masalalarga katta e’tibor qaratmoqda” .

Tadqiqot metodologiyasi. Asar hozirgacha jahonning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Bu borada, ayniqsa, G‘arbiy Yevropa tillaridagi tarjimalarning ham ahamiyati juda katta. Ushbu

tarjimalar ko‘plab o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan atroflicha tahlil etildi va bu ishlar hamon davom etmoqda .

Asarning O‘zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda o‘rganilish tarixi ancha uzoq davrlarga borib taqalishiga qaramay, uning xorijiy tillardagi talqinini asliyat bilan qiyosiy tahlil etish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda. Bu fikr asarning inglizcha tarjimalariga ham to‘la taalluqlidir. Asar ingliz tiliga birinchi marta Chikago universiteti professori Robert Denkoff tomonidan 1983 yili va ikkinchi marta ingliz shoiri va tarjimoni Volter Mey tomonidan 1998 yili tarjima qilindi. Bu ikki tarjimaning ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud: birinchi tarjima, asosan, nasrda berilgan bo‘lsa, ikkinchisi nazmda amalga oshirilganligiga qaramay bevosita asliyatga emas, balki vositachi tildagi tarjimaga tayangan. Shunga ko‘ra, mazkur inglizcha tarjimalarni atroflicha o‘rganish “Qutadg‘u bilig”ning jahon adabiyotida tutgan o‘rni va boshqa xalqlar adabiy an‘analariga ta‘sirini aniqlash imkonini yaratadi. Ularni qiyosiy tahlil etish, asliyatga adekvatlik darajasini aniqlash qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik uchun qimmatli xulosalarni beradi.

Turkiy matnning tanqidiy nashri va zamonaviy turkcha tarjimasi esa Rashid Rahmati Arat tomonidan tayyorlangan: I-jild “Metin” (1947) va II-jild “Tercüme” (1959).

Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” asaridagi frazeologik birliklar poetikasi “semantik maydon” tamoyili asosida tahlil qilinib, barqaror birikmalarning matn doirasida qanday ma‘no va kommunikativ funksiyalarni bajarishi, shuningdek, ularning qaysi ritorik vositalar orqali didaktik g‘oyalarni ifodalashga xizmat qilishi ilmiy jihatdan o‘rganiladi.

Frazeologizm (barqaror birikma, idiom, tayyor nutqiy qolip) – tarkibi nisbatan barqaror, qayta-qayta takrorlanishga moyil va ko‘p holda ko‘chma ma‘no yoki maxsus uslubiy yukka ega birlikdir. Jon Sinkler ta‘birida “barqaror birikmalar til faoliyatini tavsiflashda muhim manba sifatida talqin qilinadi”.

Korpusga tayanilgan tadqiqotlar bo‘yicha R.Mun “barqaror birikmalarning matndagi variantlanishi, kollokasion muhiti va diskursdagi vazifalarini ochish imkonini berishi”ni ilgari suradi .

Alison esa esa tayyor qoliplar nutqni tezlashtirishi, idiomatiklikni ta‘minlashi va xotirada saqlanishini tushuntiradi .

Kovi frazeologizmlar poetikasi deganda barqaror birliklarning estetik-ritorik imkoniyati tushuadi. U ularni ma‘noni “qisqartirishi”, emosiyanı kuchaytirishi, antiteza va metaforani standart model sifatida takror ishlatishi, matnning didaktik stratiyegiyasini yodda qoladigan “formula”ga aylantirishini ko‘rsatib o‘tadi.

Ye.M.Vereshagin va V.G.Kostomarovlar Frazeologizmlarni ikki funksiyasiga ko‘ra boshqa birliklardan farqlashadi: kumulyativ va direktiv. O‘zbek tilshunosligida frazeologiyaga

bag'ishlangan qator tadqiqotlarda frazeologiya ob'yekti bo'lmish Frazeologiya tushunchasini ta'riflashda yakdil to'xtamga kelinmaganligi tufayli ob'yektning ba'zan juda torayib, ba'zan nihoyatda kengayib ketishi alohida masala sifatida e'tirof etib kelinmoqda .

Beykyerning ta'kidicha "arjima amaliyotida esa frazeologizmlar madaniy obraz va tayyor qolip bo'lgani sababli ekvivalent topish, funksional almashtirish yoki kompensatsiya kabi strategiyalarni talab qiladi" .

Jackson frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini yaqqol aks ettirishini ta'kidlaydi. Olimning nazariyasiga ko'ra, frazeologiya xalqning tarixiy tajribasi va dunyoqarashini til orqali ifodalaydi. Shu bois u lingvomadaniy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi .

"Tarjimada asliyatdagi muallif qo'llagan ohangdorlikni yuzaga chiqaradigan poetik unsurlarni ko'proq qayta yaratish va ularning boshqa ko'rinishlaridan ham foydalanish tarjimada ham fikrni bo'rttirish va kuchaytirishga, asliyat mazmunini tarjima tilida ham to'la saqlashga imkon yaratadi" .

"Qutadg'u bilig" ham maqol, matal va aforizmlarni o'zida jamlagan frazeologizmlarga boy nodir asarlardan hisoblanadi. Asosli ta'kidlanganidek: "Qutadg'u bilig" asariga o'sha davrda yaratilgan boshqa asarlar kabi xalq og'zaki ijodining kuchli ta'siri seziladi. Buni asar vaznidan boshlab, uning qofiya tizimida, janrlar strukturasi, asar kompozitsiyasida, tili va uslubida, umuman, asarning barcha kompozision hamda g'oyaviy-badiiy strukturasi kuzatish mumkin" .

Tahlillar va natijalar. "Qutadg'u bilig" tom ma'noda tilning turli unsurlari qatori frazeologik birliklarga ham boydir. Muallif ulardan shunday ustalik bilan foydalanadika, natijada o'quvchining estetik extiyoji nafis san'at vositasida qondiriladi. Biz tahlil materiali sifatida frazeologizmlarning 11 semantik mavzuda guruhlangan to'plaini oldik. Tadqiqot jarayonida esa semantik maydon tahlili; konseptual metafora va obraz modellari; funksional-stilistik tavsif kabi ilmiy metodlardan foydalandik. Asarda qo'llanilgan frazeologizmlarni quyidagi o'n bir mavzuviy guruxga ajratdik:

1-jadval

Mavzu va g'oya	Frazeologik birliklar	Frazeologizmlarning poetik vazifasi
Allohning yagona va sheriksiz ekaniga ishonish - Tavhid	Avval va oxir, O'xshashi yo'q	Ilohiy mutlaqlik
Iymon/najot	Qo'ldan tutmoq, To'g'ri yo'lga kirmoq	Hidoyatni jonli obrazda berish
Vaqt/nur	Qora tun – yorug'kunduz, Falak aylanmoq	Antiteza va sikl orqali ifoda
Bahor/tabiati	Gul kulib ochilmoq, Yashil kiynmoq	Tirilish estetikasi, tabiatni personajlash
Davlat/siyosat	Olamni qo'lga olmoq, Siyosat qaror topmoq	Hokimiyatni tartibga solmoq

Nutq odobi	Til – arslon, So‘z tugunini yozmoq	Nutqni xavf/qudrat sifatida namoyon etish
Ilm/aql	Bosh kalit/ Bilim – inju	Bilimni predmet metaforasi bilan qimmatlash
O‘tkinchilik	Tushdek o‘tmoq, Oti qolmoq	Foniylik/nomi qolishi
Dushmanlik	Qilichga qo‘l tekkizmoq, Etni yemoq (g‘iybat)	Ijtimoiy xavfni obrazli ifodasi

Ko‘rinadiki, frazeologik birliklar asarda matnda ma‘noni “harakatga keltiradigan”, ya‘ni o‘quvchiga ta‘sir qildirib, g‘oyani ishlatib turadigan asosiy mexanizm vazifasini bajaradi: ular g‘oyani tez qabul qilinadigan formula qilib qotiradi, badiiy ta‘sirni ritorik vositalar orqali oshiradi va axloqiy-siyosiy tezisni «tabiiy tartib» sifatida ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Frazeologizmlar ma‘nosi nafaqat denotativ-signifikativ jihatlari bilan, balki ularni so‘zlardan farqlab turuvchi turli darajadagi konnotatsiyasi bilan ahamiyatga egadir. Frazeologik birlik semantik mazmuni strukturasida konnotativ komponentning masalasi o‘zining alohida tarixiga ega. Konnotatsiyani inobatga olishning dolzarblik tomonlarini 1961 yildayoq B.A.Larin aytib o‘tgan. A.I.Fyodorov esa, frazeologik birlikning ichki shakli uning moddiy mazmuni va frazeologizm vositasida ifodalanuvchi baholanish bilan belgilanadi.

Endi asardagi frazeologizmlarning g‘oyaviy, badiiy va estetik funksiyalariga nazar tashlasak:

1. Ilohiylik, tavhid va Yaratuvchi sifatleri. “Avval va oxir”, “O‘xshashi yo‘q”, “O‘rni yo‘q”, “Mungsiz xudo” kabi ifodalar tavhid g‘oyasidir: bu birliklar didaktik matnda “isbot talab qilmaydigan haqiqat” sifatida namoyon bo‘lib, o‘quvchida e‘tiqodni nutqiy qoida darajasida mustahkamlaydi.

2. Iymon, duo, shafolat, qiyomat va najot. “Qo‘ldan tutmoq”, “To‘g‘ri yo‘lga kirmoq”, “Imonni komil tutmoq» kabi birliklar abstrakt diniy tushunchani sensomotor obrazga ko‘chiradi: yo‘l va qo‘l metaforalari hidoyatni harakat va yo‘nalish sifatida modellashtirib, matn ta‘sirini kuchaytiradi.

3. Koinot, vaqt, nur-zulmat. “Qora tun – yorug‘ kunduz” antitezasi va “Falak aylanmoq” modeli vaqtni sikl sifatida tasvirlaydi. Bunda axloqiy xulosa kosmologik tartib bilan bog‘lanadi: inson taqdiri va davlat tartibi “falak” harakati singari qonuniylik kasb etadi.

4. Tabiat va bahor. “Baxor nasimi esdi”, “Gul kulib ochilmoq”, “Yashil kiynmoq” kabi birliklar tabiatni insonlashtirib, tirilish estetikasini yaratadi. Bu poetik mexanizm asarning didaktik maqsadi – “uyg‘onish” va “yaxshilikka burilish”ni – hissiy darajada qabul qildirishga yordam beradi.

5. Davlat, hokimiyat va siyosat. “Olamni qo‘lga olmoq”, “Davlatga tayanch bo‘lmoq”, “Siyosat qaror topmoq birliklari hokimiyatni axloq bilan bog‘lab tartiblashtiradi: “olam tinchligi, ruhiy-ijtimoiy tartibning tiklanishi sifatida talqin qilinadi.

Taqdim etilgan tahlilga ko'ra, "Qutadg'u bilig" frazeologizmlari 11 semantik maydon atrofida tizimlanib, uchta ustun vazifani bajaradi:

1. Didaktik fikrni barqaror shaklda ifodalash;
2. Ritorik-estetik kuchaytirish (antiteza, giperbola, metafora va h.);
3. Turkiy-islomiy dunyoqarash modelini (tavhid–axloq–siyosat–foniylilik) bir butun

matn mexanizmi sifatida ishlatish. Shu ma'noda, frazeologiya asarning "bezagi" emas, uning ma'no muharriki, ya'ni asarda ma'noni "harakatga keltiruvchi" – o'quvchiga ta'sir qildirib, g'oyani xarakatga keltiruvchi asosiy unsurlardan biridir.

Xulosa. Maqolada Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi ayrim frazeologik birliklar poetikasi semantik maydon, konseptual metafora va funksional-stilistik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari frazeologizmlar asarda tasodifiy bezak emas, balki didaktik g'oyani qisqa va barqaror formulalar orqali ifodalovchi, ritorik ta'sirni kuchaytiruvchi hamda diniy-axloqiy va siyosiy qarashlarni yagona semantik tizimda birlashtiruvchi asosiy poetik mexanizm ekanini ko'rsatdi.

Frazeologik birliklarning o'n bir semantik maydon doirasida guruhlanishi "Qutadg'u bilig"ning ichki ma'no strukturasining izchilligini tasdiqlaydi hamda tavhid, axloq, davlat va foniylilik tushunchalarining o'zaro uzviy bog'liqligini ochib beradi. Mazkur xulosalar asarni lingvopoetik va lingvomadaniy jihatdan o'rganishda muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullajonov A. Navoiy badiiyatini nemischa tarjimalarda qayta yaratish va tabdil etish: Filol. fan. nom. ... diss. – T., 1998. – B. 95.
2. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. London/New York: Routledge, 2018.
3. Cowie, A. P. (ed.). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. Oxford: Clarendon Press (Oxford University Press), 1998.
4. H. Jackson. Words and Their Meaning, London: Longman Press, 1988, p. 96
5. Qutadg'u Bilig. Brill Reference Works: Encyclopaedia of Islam (onlayn maqola).
6. Kutudgu bilig. Encyclopaedia Britannica (onlayn maqola).
7. Moon, Rosamund. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-based Approach. Oxford: Clarendon Press, 1998.
8. O'rinboyev, B. Qadimgi turkiy til va adabiyot masalalari. Toshkent: Fan nashriyoti, 1981. B. 80.
9. Ravshanov F. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga eltuvchi bilim). – Toshkent: Akademnashr, 2015.– B. 123.

10. Sidiqov Q. Qutadg‘u bilig to‘rtliklarining inglizcha badiiy tarjima xususiyatlari. – Toshkent: Bayoz, 2014. 128 b
11. Sinclair, John. Corpus, Concordance, Collocation: Describing English Language. Oxford: Oxford University Press, 1991.
12. To‘xliyev B. “Qutadg‘u bilig” poetikasi masalalari // Ishoqov M. Raxmonov N., Sodiqov Q., To‘xliyev B. O‘lmas obidalar. – T.: Fan, 1989. – T.: Fan, 1989. – B. 421.
13. Wray, Alison. Formulaic Language and the Lexicon. Cambridge: Cambridge University Press, 2002.